

hajmini kengaytirish;

- oilaviy mehmon uylari hamda xususiy turizm xizmatlarini qo‘llab-quvvatlashni kuchaytirish;
- turizm sohasida malakali kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish;
- raqamli turizm xizmatlari va elektron to‘lov tizimlarini keng joriy etish;
- O‘zbekistonning turistik salohiyatini xalqaro miqyosda faol targ‘ib qilish.

Mazkur chora-tadbirlarni amalga oshirish turizm sohasidagi kichik biznes subyektlarining raqobatbardoshligini oshirish va mamlakat iqtisodiy salohiyatini yanada mustahkamlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasining “Turizm to‘g‘risida”gi Qonuni: O‘RQ-549-son, 18.07.2019-yil. [Elektron resurs]. – <https://lex.uz/docs/-4428097?ONDATE=14.05.2024>
2. “2026–2027 yillarda Malayziya va Indoneziyadan “ziyosat turizmi” yo‘nalishida O‘zbekistonga keladigan sayyohlar soni 100 ming nafarga yetadi” // [O‘zA – O‘zbekiston Milliy axborot agentligi](#) [Elektron resurs].
3. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. O‘zbekiston Respublikasida yalpi ichki mahsulot va xizmatlar sohasi statistikasi [Elektron resurs]. – <https://stat.uz>
4. Xolmatov B. Turizm infratuzilmasini rivojlantirishning iqtisodiy mexanizmlari. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2021. – 156 b.

Gulrux CHINPO‘LATOVA,
O‘zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi magistranti,
Ilmiy rahbar: Nilufar BATIROVA,
O‘zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi,
“Islom iqtisodiyoti va moliyasi, ziyorat turizmi” kafedrasi dotsenti, PhD

ZIYORAT TURIZMINI RIVOJLANTIRISHDA SUN’IY INTELLEKT TEKNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNING IQTISODIY MEXANIZMLARI

Annotatsiya. Mazkur tezisdagi ziyorat turizmini rivojlantirishda sun‘iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishning iqtisodiy mexanizmlari hamda ularning turizm xizmatlari samaradorligiga ta‘siri tadqiq etilgan. Tadqiqotda chatbotlar, virtual gidlar, turistlar oqimini prognozlash tizimlari va raqamli marketing vositalarining turistik xizmatlar sifatini oshirish, xarajatlarni kamaytirish hamda turizm subyektlarining raqobatbardoshligini kuchaytirishdagi ahamiyati tahlil qilingan. Shuningdek, O‘zbekistonda ziyorat turizmini raqamlashtirishning istiqbolli yo‘nalishlari yuzasidan ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: ziyorat turizmi, sun‘iy intellekt, iqtisodiy mexanizmlar, raqamli iqtisodiyot, turizmni raqamlashtirish, “smart tourism”, turistlar oqimi, turizm samaradorligi, raqamli transformatsiya, O‘zbekiston turizmi.

Аннотация. В настоящем тезисе исследуются экономические механизмы

применения технологий искусственного интеллекта в развитии паломнического туризма, а также их влияние на повышение эффективности туристических услуг. Проведён анализ роли чат-ботов, виртуальных гидов, систем прогнозирования туристических потоков и инструментов цифрового маркетинга в обеспечении повышения качества туристического обслуживания, снижении издержек и усилении конкурентоспособности субъектов туристической деятельности. Кроме того, сформулированы научно-практические предложения по перспективным направлениям цифровизации паломнического туризма в Республике Узбекистан.

Ключевые слова: паломнический туризм, искусственный интеллект, экономические механизмы, цифровая экономика, цифровизация туризма, smart tourism, туристические потоки, эффективность туристических услуг, цифровая трансформация, туризм Узбекистана.

Abstract. This thesis examines the economic mechanisms of using artificial intelligence technologies in the development of pilgrimage tourism and their impact on the efficiency of tourism services. The study analyzes the role of chatbots, virtual guides, tourist flow forecasting systems, and digital marketing tools in improving the quality of tourism services, reducing costs, and enhancing the competitiveness of tourism entities. Furthermore, scientific and practical proposals are developed regarding promising directions for the digitalization of pilgrimage tourism in Uzbekistan.

Keywords: pilgrimage tourism, artificial intelligence, economic mechanisms, digital economy, tourism digitalization, smart tourism, tourist flows, tourism efficiency, digital transformation, tourism of Uzbekistan.

So‘nggi yillarda turizm tarmog‘i jahon iqtisodiyotida yalpi ichki mahsulot, bandlik va xizmatlar eksportini ta‘minlovchi strategik sohalardan biri sifatida jadal rivojlanmoqda. Jahon turizm tashkiloti (UNTourism) ma‘lumotlariga ko‘ra, turizm sohasining raqamli texnologiyalar bilan integratsiyalashuvi xizmatlar samaradorligi va boshqaruv sifatini sezilarli darajada oshirmoqda [1].

Ziyorat turizmi madaniy va diniy merosga asoslangan muhim yo‘nalish sifatida O‘zbekiston turizm tizimida alohida o‘rin egallaydi hamda uning rivojlanishi “O‘zbekiston–2030” strategiyasi va turizm sohasini modernizatsiya qilishga qaratilgan davlat dasturlari bilan bevosita bog‘liqdir [2].

Shu sharoitda sun‘iy intellekt texnologiyalarining turizm sohasiga joriy etilishi xizmatlar sifatini oshirish, iqtisodiy jarayonlarni optimallashtirish hamda turistlar oqimini samarali boshqarish imkonini bermoqda. Mazkur omillar ziyorat turizmini rivojlantirishda sun‘iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishning iqtisodiy mexanizmlarini ilmiy jihatdan tadqiq etishni dolzarb masalaga aylantiradi.

Ziyorat turizmi xalqaro turizm tizimining madaniy-diniy segmenti sifatida ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishda muhim o‘rin egallaydi. Jahon turizm tashkiloti (UNTourism) ma‘lumotlariga ko‘ra, 2024-yilda xalqaro turistlar oqimi 1,3 milliard kishidan oshib, pandemiyadan keyingi tiklanish jarayonida turizm sektori global xizmatlar iqtisodiyotining eng tez tiklanayotgan tarmoqlaridan biri sifatida qayd etilgan [1]. Bu holat turizmning global iqtisodiy tizimdagi strategik ahamiyatini tasdiqlaydi.

Ilmiy adabiyotlarda turizmning iqtisodiy ta‘siri asosan multiplikativ ta‘sir modeli asosida tahlil qilinadi. Ushbu modelning mazmuniga ko‘ra, turizmga yo‘naltirilgan har bir iqtisodiy birlik mablag‘ iqtisodiyotning bir nechta tarmoqlarida

qayta aylanish jarayonini keltirib chiqaradi va qo‘shimcha iqtisodiy qiymat yaratadi. World Travel & Tourism Council (WTTC, 2024) hisobotiga ko‘ra, turizm va sayohat sektori global yalpi ichki mahsulotning 9,1 foizini tashkil etadi hamda dunyo bo‘yicha har 11 ish o‘rnidan 1 tasini yaratadi. Shuningdek, ushbu modelga ko‘ra, turizm xarajatlarining iqtisodiyotda qayta aylanish darajasi 1,6–2,8 koeffitsiyent oralig‘ida baholanib, bu turizm sektorining bevosita va bilvosita iqtisodiy ta‘sirga ega ekanligini anglatadi [3].

Sun‘iy intellekt texnologiyalari zamonaviy iqtisodiyotda katta hajmdagi ma‘lumotlarni tahlil qilish asosida qaror qabul qilish tizimi sifatida shakllanmoqda. Ziyorat turizmi kontekstida bunday texnologiyalar turistlar oqimini prognoz qilish, talab va taklifni muvofiqlashtirish hamda xizmatlar sifatini optimallashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, tarixiy va diniy obyektlarga tashrif buyuruvchi turistlar soni, mavsumiylik, transport oqimi va mehmonxona bandligi haqidagi ma‘lumotlar asosida sun‘iy intellekt tizimlari kelgusidagi talabni oldindan aniqlash imkonini beradi.

McKinsey Global Institute (2018) prognozlariga ko‘ra, sun‘iy intellekt texnologiyalarining keng joriy etilishi 2030-yilgacha global iqtisodiyotga yiliga taxminan 13 trillion AQSh dollarigacha qo‘shimcha iqtisodiy qiymat yaratish salohiyatiga ega [4]. Ushbu o‘shishning muhim qismi xizmatlar sohasi, raqamli iqtisodiyot va turizm kabi ma‘lumotlarga asoslangan tarmoqlarda samaradorlikning oshishi hisobiga shakllanadi. Bu esa ziyorat turizmi kabi yuqori oqimga ega segmentlarda resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish va iqtisodiy mexanizmlarni optimallashtirish imkonini beradi.

Ilmiy konsepsiyalarda ushbu transformatsion jarayon aqlli turizm ekotizimi sifatida talqin qilinadi. Buhalis va Amaranggana (2015) tadqiqotlariga ko‘ra, “smart tourism” aqlli turizm real vaqt rejimidagi ma‘lumotlar, sun‘iy intellekt va raqamli platformalarning integratsiyasiga asoslangan bo‘lib, turistlarga individual yondashuv asosida xizmat ko‘rsatish, resurslardan optimal foydalanish va turizm oqimini samarali boshqarish imkonini beradi [5].

Shu asosda ilmiy tahlillar shuni ko‘rsatadiki, sun‘iy intellekt texnologiyalarining ziyorat turizmi tizimiga integratsiyasi iqtisodiy mexanizmlarni modernizatsiya qilish, xizmatlar sifatini oshirish, turistlar oqimini aniq prognoz qilish hamda hududiy iqtisodiy rivojlanishni jadallashtirishda muhim omil hisoblanadi.

So‘nggi yillarda O‘zbekiston ziyorat turizmi barqaror o‘shish tendensiyasiga ega bo‘lib, 2024-yilda mamlakatga 8,2 milliondan ortiq xorijiy turist tashrif buyurgani qayd etilgan. Ushbu turistlarning muhim qismi Samarqand, Shahrisabz, Buxoro, Xorazm va Toshkent shaharlaridagi ziyorat va madaniy meros obyektlariga yo‘naltirilgan bo‘lib, bu hududlar mamlakatning asosiy ziyorat turizmi markazlari sifatida shakllanmoqda. Turizm sektori mamlakat YaIMining taxminan 3–4 foizini tashkil etishi uning iqtisodiyotdagi ahamiyati ortib borayotganini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, amaliy holat shuni ko‘rsatadiki, ziyorat turizmi infratuzilmasi hali to‘liq raqamli transformatsiya bosqichiga o‘tmagan bo‘lib, xizmatlar ko‘rsatish va boshqaruv jarayonlarida an‘anaviy yondashuvlar ustunlik qilmoqda [6].

O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston–2030” strategiyasiga muvofiq, turizm sohasini rivojlantirish ustuvor yo‘nalishlardan biri sifatida belgilangan bo‘lib,

2030-yilgacha xorijiy turistlar sonini 20 millionga yetkazish, turizm xizmatlari eksportini 6 milliard AQSh dollariga yetkazish hamda ziyorat turizmi oqimini 3 million kishidan ortiq darajaga chiqarish maqsad qilingan [2]. Shu bilan birga, strategiyada raqamli transformatsiya va aqlli turizm tizimlarini joriy etish alohida ustuvor yoʻnalish sifatida qayd etilgan.

Amaliy tahlillar shuni koʻrsatadiki, Oʻzbekistonda ziyorat turizmini raqamlashtirish va sunʼiy intellekt texnologiyalarini joriy etish jarayoni bosqichma-bosqich rivojlanmoqda. Hozirgi kunda AI va raqamli texnologiyalar asosan axborot xizmatlari, elektron navigatsiya, onlayn bronlash va turistlarga interaktiv maʼlumot taqdim etish yoʻnalishlarida qoʻllanilmoqda.

Xususan, Samarqand shahrida Registon majmuasi, Shohi Zinda va Imom Buxoriy ziyorat maskanlari atrofida QR-kod asosidagi raqamli axborot tizimlari joriy etilgan boʻlib, turistlar mobil qurilmalar orqali tarixiy obyektlar haqida koʻp tilli maʼlumot olish imkoniyatiga ega. Ayrim mehmonxonalar va turistik xizmat koʻrsatish obyektlarida onlayn bronlash, elektron toʻlov hamda avtomatlashtirilgan mijozlarga xizmat koʻrsatish tizimlari qoʻllanilmoqda. Shu bilan birga, Google Maps va boshqa navigatsiya platformalari orqali turistlar oqimini yoʻnaltirishda sunʼiy intellekt algoritmlaridan qisman foydalanilmoqda.

Xorazm viloyatida, xususan Xiva shahridagi Ichan-Qalʼa majmuasida elektron chipta tizimlari, virtual ekskursiya xizmatlari va mobil gid platformalari joriy etilgan. Turistlarga obyektlar haqida raqamli maʼlumot berish tizimi yoʻlga qoʻyilgan boʻlsa-da, turistlar oqimini real vaqt rejimida tahlil qilish va prognozlash imkonini beruvchi AI tizimlari hali toʻliq shakllanmagan.

Shuningdek, Toshkent shahridagi Islom sivilizatsiyasi markazi ham Oʻzbekistonda zamonaviy ziyorat va madaniy turizm infratuzilmasining muhim obyektlaridan biri sifatida shakllanmoqda. Markazda raqamli kutubxona, interaktiv ekspozitsiyalar, multimedia texnologiyalari va elektron axborot tizimlari joriy etilgan boʻlib, bu turistlarga tarixiy-madaniy meros haqida zamonaviy usulda maʼlumot olish imkonini bermoqda. Mazkur tizimlar kelgusida sunʼiy intellekt asosidagi virtual gidlar va aqlli axborot xizmatlarini rivojlantirish uchun muhim texnologik asos vazifasini bajaradi.

Amaliy tahlillar Oʻzbekistonda bir qator tizimli muammolar mavjudligini ham koʻrsatadi. Jumladan, turizm maʼlumotlari bazasi markazlashmagan boʻlib, turli tashkilotlar oʻrtasida maʼlumot almashinuvi yetarli darajada yoʻlga qoʻyilmagan. Turistlar oqimini real vaqt rejimida monitoring qilish va AI asosida prognozlash tizimlari amaliyotga toʻliq joriy etilmaganligi sababli mavsumiy yuklama va xizmatlar bandligini samarali boshqarish imkoniyati cheklanmoqda. Shuningdek, hududlar oʻrtasida raqamlashtirish darajasi notekis boʻlib, Samarqand va Toshkentda nisbatan rivojlangan tizimlar mavjud boʻlsa, ayrim hududlarda raqamli xizmatlar yetarli darajada shakllanmagan.


Xorijiy tajribalar shuni koʻrsatadiki, ziyorat turizmini boshqarishda sunʼiy intellekt texnologiyalaridan foydalanish koʻlami tobora kengayib bormoqda. Xususan, Saudiya Arabistonida haj va umra jarayonlarini boshqarishda “Smart Hajj” va “Nusuk” platformalari joriy etilgan boʻlib, ular orqali millionlab ziyoratchilar oqimi real vaqt rejimida monitoring qilinadi, tirbandlik darajasi prognoz qilinadi

hamda transport va marshrutlar avtomatik optimallashtiriladi. Ushbu tizimlar ziyoratchilar xavfsizligini ta'minlash va xizmat ko'rsatish samaradorligini oshirishda muhim rol o'ynamoqda [7].

Turkiyada esa Istanbuldagi Aya Sofiya, Sulton Ahmad masjidi hamda Konya shahridagi Jaloliddin Rumi majmuasida sun'iy intellekt asosidagi virtual gid va ko'p tilli mobil ilovalar qo'llanilib, turistlarga individual ekskursiya xizmatlari ko'rsatilmoqda. Mazkur tizimlar turistlarning qiziqishlari va harakat yo'nalishlarini tahlil qilish orqali shaxsiy tavsiyalar shakllantiradi [8].

Birlashgan Arab Amirliklarida, jumladan Dubay shahrida "Smart City" konsepsiyasi asosida AI texnologiyalari yordamida turistlar oqimi, mehmonxonalar bandligi va xizmatlarga bo'lgan talab real vaqt rejimida tahlil qilinmoqda. Natijada turizm infratuzilmasidan foydalanish samaradorligi oshib, xizmat ko'rsatish jarayonlari optimallashtirilgan [9].

Umuman olganda, xalqaro tajriba sun'iy intellekt texnologiyalarining ziyorat turizmida turistlar oqimini prognozlash, xizmatlarni raqamlashtirish va infratuzilma boshqaruvini optimallashtirishda muhim ahamiyat kasb etayotganini ko'rsatadi. Mazkur tajribalar O'zbekistonda aqlli ziyorat turizmi tizimini shakllantirish uchun muhim amaliy model bo'lib xizmat qilishi mumkin.



1-rasm. Sun'iy intellekt texnologiyalarining ziyorat turizmi samaradorligiga ta'siri (% da)

Manba: European Commission (2023), WTTC (2024) va xalqaro tahliliy ma'lumotlar asosida muallif tomonidan tuzildi.

Ushbu rasm ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, sun'iy intellekt texnologiyalarini ziyorat turizmi tizimiga joriy etish xizmatlar samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Xususan, turistlar oqimini prognozlash aniqligi 85–90 foizgacha yetishi turizm infratuzilmasini samarali boshqarish imkonini beradi. Shu bilan birga, raqamli marketing vositalari mijozlarni jalb qilish samaradorligini oshirib, xizmat ko'rsatish tezligi va

sifatini oshirishga xizmat qiladi. Operatsion xarajatlarning kamayishi hamda xavfsizlik darajasining ortishi esa ziyorat turizmi subyektlarining iqtisodiy barqarorligini mustahkamlashda muhim omil hisoblanadi.

Mazkur natijalar sun'iy intellekt texnologiyalarining ziyorat turizmini modernizatsiya qilish va "aqli turizm" tizimini shakllantirishdagi strategik ahamiyatini tasdiqlaydi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, sun'iy intellekt texnologiyalarining ziyorat turizmi tizimiga integratsiyalashuvi xizmatlar samaradorligini oshirish, turistlar oqimini optimallashtirish hamda turizm infratuzilmasini boshqarishning zamonaviy iqtisodiy mexanizmlarini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, chatbotlar, virtual gidlar, prognozlash tizimlari va raqamli marketing vositalaridan foydalanish xizmat ko'rsatish sifatini yaxshilash bilan birga operatsion xarajatlarni kamaytirish va turizm subyektlarining raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi.

Tahlillar asosida O'zbekistonda ziyorat turizmini raqamlashtirish jarayonlarini jadallashtirish maqsadida quyidagi amaliy takliflarni ilgari surish maqsadga muvofiq:

- ziyorat turizmi obyektlarini yagona raqamli platforma asosida integratsiyalash;
- sun'iy intellekt asosidagi turistlar oqimini monitoring va prognozlash tizimlarini joriy etish;
- tarixiy va diniy obyektlarda ko'p tilli virtual gid hamda chatbot xizmatlarini kengaytirish;
- turizm infratuzilmasida "Smart Tourism" konsepsiyasini bosqichma-bosqich rivojlantirish;
- turizm sohasi mutaxassislarining raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt bo'yicha kompetensiyalarini oshirish.

Xulosa sifatida ta'kidlash joizki, sun'iy intellekt texnologiyalaridan samarali foydalanish O'zbekistonda ziyorat turizmini innovatsion rivojlantirish, xalqaro turizm bozoridagi raqobatbardoshlikni kuchaytirish hamda mamlakatning turistik jozibadorligini oshirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. World Tourism Organization (UNTourism). Tourism Barometer and Statistical Annex, 2024 Edition. – Madrid: UNTourism, 2024. – 120 p.
2. LexUZ. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston–2030" strategiyasi to'g'risidagi Farmoni. – Toshkent, 2023. (<https://lex.uz> (<https://lex.uz/>))
3. World Travel & Tourism Council (WTTC). Economic Impact Research: Global Trends 2024. – London: WTTC, 2024. – 85 p.
4. McKinsey Global Institute. Notes from the AI Frontier: Modeling the Impact of AI on the World Economy. – New York: McKinsey & Company, 2018. – 64 p.
5. Buhalis D., Amaranggana A. Smart Tourism Destinations: Enhancing Tourism Experience through Personalisation of Services // Information and Communication Technologies in Tourism. – Springer, 2015. – P. 377–389.
6. O'zbekiston Respublikasi Turizm qo'mitasi. Turizm rivojlanishi bo'yicha yillik hisobot. – Toshkent, 2024.
7. Saudi Ministry of Hajj and Umrah. Nusuk Digital Platform (official

information). Riyadh, 2024. <https://www.nusuk.sa> (<https://www.nusuk.sa/>)

8. Republic of Türkiye Ministry of Culture and Tourism. Tourism Statistics. Ankara, 2024. <https://www.ktb.gov.tr> (<https://www.ktb.gov.tr/>)

Feruza AKBAROVA, talaba,
Ilmiy rahbar: O‘ktam JIYANOV,
O‘zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi,
“Islom iqtisodiyoti va moliyasi, ziyorat turizmi” kafedrasida dotsenti v.b.

ELEKTRON ISHTIROK INDEKSI (EPI) NI AMALGA OSHIRISH MEXANIZMI VA UNDA O‘ZBEKISTON TAJRIBASI

Annotatsiya. Mazkur maqolada Elektron ishtirok indeksi (E-Participation Index – EPI) ning mazmuni, baholash mexanizmi va uning elektron hukumat tizimidagi o‘rni tahlil qilingan. Shuningdek, O‘zbekistonning 2016-2024-yillar oralig‘idagi EPI ko‘rsatkichlari dinamikasi o‘rganilib, undagi o‘zgarishlar sabablari izohlangan, rivojlantirish borasida amalga oshirilgan davlat dasturlari hamda mavjud muammolar o‘rganib chiqilgan.

Kalit so‘zlar: Birlashgan Millatlar Tashkiloti, Elektron ishtirok indeksi, elektron hukumat, elektron ishtirok, Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali, ochiq ma‘lumotlar portali, Prezidenti Virtual qabulxonasi.

Аннотация. В данной статье проанализированы сущность, механизм оценки и роль Индекса электронного участия (E-Participation Index – EPI) в системе электронного правительства. Также исследована динамика показателей EPI Республики Узбекистан за период 2016–2024 годов, раскрыты причины произошедших изменений, рассмотрены государственные программы, реализованные в целях развития электронного участия, а также существующие проблемы и перспективы дальнейшего совершенствования данной сферы.

Ключевые слова: Организация Объединённых Наций, Индекс электронного участия, электронное правительство, электронное участие, Единый портал интерактивных государственных услуг, портал открытых данных, Виртуальная приёмная Президента.

Abstract. This article analyzes the essence, assessment mechanism, and role of the E-Participation Index (EPI) within the e-government system. Furthermore, it examines the dynamics of Uzbekistan’s EPI indicators during the period 2016–2024, explains the reasons behind the observed changes, reviews the government programs implemented to promote e-participation, and identifies existing challenges and prospects for further development in this area.

Keywords: United Nations, E-Participation Index, e-government, e-participation, Unified Interactive Public Services Portal, Open Data Portal, President’s Virtual Reception Office.

Texnologiyalar asrida raqamlashib borayotgan muhit an’anaviy ishtirok tushunchalari o‘zgarib, elektron ishtirokka ehtiyoj ortib bormoqda. Shu jihatdan Elektron ishtirok indeksi (E-Participation Index – EPI) butun dunyo bo‘ylab elektron ishtirok sohasidagi rivojlanishni baholashda muhim ma‘lumot manbaiga aylandi [6]. 2003-yildan buyon Birlashgan Millatlar Tashkiloti butun dunyo bo‘ylab elektron ishtirok tashabbuslarini baholaydigan birinchi ko‘rsatkich – Elektron ishtirok indeksini qo‘llab kelmoqda [3]. Ushbu indeks BMT ning Elektron hukumat tadqiqoti